**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYNAZAROV JAHONGIR ORTIQ O‘G‘LI

POLILAKTID ASOSIDA BIOPARCHALANUVCHAN MATERIALLAR: OLINISHI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Termiz – 2026

UO‘K: 547.472.3; 661.746.24

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

XUDAYNAZAROV JAHONGIR ORTIQ O‘G‘LI

POLILAKTID ASOSIDA BIOPARCHALANUVCHAN MATERIALLAR: OLINISHI, XOSSALARI VA TEXNOLOGIYASI

02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTASIYASI AVTOREFERATI

Termiz – 2026

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K1017 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomididagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ibrahim Erol** kimyo fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Xusenov Arslonnazar Shernazarovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Eshmurodov Xurshid Esanberdiyevich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/2025.27.12.K/T.12.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "24" 04 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 22174-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 320 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "07" 04 kuni tarqatildi.
(2026-yil "07" 04 dagi 3 raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A. Umbarov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

Sh.A. Kasimov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, k.f.d., prof.

R.V. Alikulov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoda har yili daryolar orqali okeanga kelib qo‘shiladigan mikroplastik zarrachalarning umumiy miqdori 1,5 mln tonnagacha yetishi aniqlangan bo‘lib, suvda yashovchi tirik organizmlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, ushbu mikroplastik zarrachalarning to‘planishidan biokimyoviy jarayonlarning buzilishiga sababchi bo‘lishi, ko‘pchilik hollarda yallig‘lanish reaksiyalari, neyrotoksiklik, reproduktiv faoliyatning buzilishi va hatto genotoksiklik bilan kechishi aniqlangan. Bunday halokatli oqibatlarga sabab bo‘luvchi mikroplastik zarrachalarning asosiy qismi polietilen, polipropilen, polistirollarga to‘g‘ri keladi. Polilaktid asosida arzon, yaxshilangan fizik-kimyoviy xossalarga ega bioparchalanish xususiyatli plastik materiallar olish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda jahonda moddalarni maqsadli sintez qilish va ular asosida ekologik va ijtimoiy muammolarini hal etishda istiqbolli xomashyo bazasi, arzon texnologiyalarni qo‘llash asosida bioparchalanuvchan materiallar sinteziga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, organik kimyo sohasida zamonaviy usullardan foydalangan holda yangi yuqori molekulyar birikmalarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini tadqiq qilish, ularni oziq-ovqat sanoatida qadoqlash mahsulotlarida qo‘llash, olingan moddalar orasida biologik parchalanuvchan turli tabiiy birikmalar asosida ekologik toza bioparchalanuvchan materiallar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar va ikkilamchi birikmalar asosida oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jalligi uchun qo‘llaniladigan muhim kimyoviy materiallarni, jumladan bioparchalanuvhan materiallar olish borasida ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasi”da[1] iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirish masalalari alohida belgilab qo‘yilgan. Bu borada, biologik parchalanuvchan materiallar olishda turli polimerlar asosida iqtisodiy samarali va ekologik xavfsiz yangi bioparchalanuvchan materiallar olish hamda mavjud texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 2-martdagi PF-5953 sonli “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2018-yil 25-oktyabrdagi PQ 3983-sonli “O‘zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi tadqiqotlari Republika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Adabiyotlarda bioparchalanish xususiyatiga ega plastik materiallar sintez qilish va ularning ishlab chiqarish texnologiyalari borasida dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, polilaktidga turli noorganik va organik tabiatli to‘ldiruvchilar qo‘shish orqali, atrof-muhitga zararsiz bo‘lgan, bioparchalanuvchan plastik materiallarni tadqiq etish borasidagi tadqiqotlar dunyoning shu sohadagi yetakchi olimlari: Alethia Vazquez, Tomasz M. Majka, Marcelo A G Bardi, Daniel López, A. N. Zelenetskii, Marco Frediani, Saira Nayab, Yaowalak Srisuwan, Reza Arjmandi, Robert Molloy, C.A.P. Joziasse, Eric Dargent, Steven Verstichel, Mieke Buntinx va boshqalarning tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

Polimer kompozision materiallar sintezi va tadqiqoti, shuningdek, bioparchalanuvchan plastik materiallar sohasida respublikamiz olimlaridan H.Akbarov, S.Rashidova, T.Boboyev, G‘.Muxamediyev, I.Asqarov, D.Gafurova, X.Turayev, Sh.Kasimovlar tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar ma’lumotlaridan polilaktid, modifikatsiyalangan selluloza hamda turli noorganik minerallar – bentonit, kaolin asosida bioparchalanish xususiyatiga ega materiallar olish va ularni ishlab chiqarish texnologiyasi borasidagi tadqiqotlar kam o‘rganilganligi aniqlandi. Yuqoridagilarga asosan, mahalliy xomashyolar asosida atrof-muhit uchun zarar, biologik yo‘l bilan parchalanish xususiyatiga ega plastik materiallar ishlab chiqish va ularning texnologiyasini yaratish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ALM-202310062531 “Tabiiy va sintetik materiallarni sintez qilish, tekshirish va qayta ishlashning yangi usullari” (2023-2024-y.y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Polilaktid, modifikatsiyalangan selluloza hamda noorganik minerallar ishtirokida bioparchalanuvchan materiallar sintezi va xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Mahalliy xomashyolar asosida L-sut kislota, polilaktid hamda modifikatsiyalangan selluloza olish uchun maqbul sharoitlarni aniqlash;

bioparalanuvchan materiallar sintezi uchun maqbul sharoit (komponentlar tarkibi, nisbati, katalizator, temperatura va boshqalar) tanlash;

sintez qilingan materiallarning fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlash;

bioparchalanuvchan materiallar olish texnologiyasi (texnologik sxema, moddiy balans) ni ishlab chiqish;

sintez qilingan bioparchalanuvchan materiallarning laboratoriya va real sharoitlarda sinovlardan o‘tkazish hamda ishlab chiqarishga tavsiya etish.

Tadqiqotning obyekti. L-sut kislota, poli-L-sut kislota, o‘simliklar qoldiqlari sellulozasi, bentonit, kaolin olingan.

Tadqiqotning predmeti. Poli-L-sut kislota, modifikatsiyalangan selluloza hamda noorganik minerallar – kaolin, bentonit asosida bioparchalanuvchan materiallar maqbul tarkibini tanlash, ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish hamda olish texnologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ishda bioparchalanuvchan materiallar sintezi uchun “solvent casting method” – erituvchi muhitida quyish; “qaynoq presslash” usullari; materiallarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish uchun IQ-spektrometriya (FTIR), energodispersion rentgenfluoressent analizi (ERF), kukun rentgen difraksiyasi (XRD), skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM), termik analiz (TGA, DSC), materiallarning kontakt burchaklarini optik usulda aniqlash, materiallarning mexanik xossalarini aniqlash usullari, shuningdek, dielektrik hamda sitotoksik xossalarini aniqlash usullari va vositalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

polilaktid, oligolaktid bilan modifikatsiyalangan selluloza va mineral komponentlar: bentonit, kaolin asosida PLA/OLA-g-Selluloza/Bentonit/Kaolin 80:20 + 5/5 tarkibli 9 xil bioparchalanuvchan materiallar sintez qilingan;

Lactiplatibacillus plantarum 3G bakteriyasidan foydalangan holda, mikrobiologik yo‘l bilan L-sut kislota, undan polilaktid va bioparchalanuvchan materiallar olishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

materiallar tarkibiga 10 % gacha kaolin yoki 5 % dan kaolin/bentonit kiritilishi natijasida olingan bioparchalanuvchan materiallarning uzayishga nisbatan mustahkamligi 1,4 martaga ortganligi aniqlangan;

mahalliy xomashyolar polilaktid, oligolaktid bilan modifikatsiyalangan selluloza va mineral komponentlar asosida bioparchalanuvchan materiallar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oziq-ovqat mahsulotlari, dorivor preparatlar, qishloq xo‘jaligi hamda boshqa mahsulotlarini qadoqlash, shuningdek, bir martalik foydalaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari tayyorlashda qo‘llaniladigan bioparchalanuvchan materiallar olingan;

o‘simlik chiqindilaridan olingan sellulozani sut kislota oligomeri bilan kimyoviy modifikatsiyalash komponentlar makromolekulalari orasida o‘zaro ta’sirlarni kuchaytirishi, materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini yaxshilashi aniqlangan;

materiallar tarkibiga qo‘shilgan kaolin mineralining miqdori ortib borishi bilan parchalanish haroratining 70-80 ºC ga, shishalanish haroratining ~25 ºC ga pasayishiga olib kelishi isbotlangan;

sintez qilingan materiallar mexanik mustahkamligi, ekologik toza, xavfsiz ekanligi, atrof-muhitga tushganda 4-6 oy ichida o‘z-o‘zicha biologik yo‘l bilan 90-96 % ga parchalanishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda olib borilgan sezilarli hajmdagi tajriba va sanoat miqyosida o‘tkazilgan eksperementlarning natijalari qoniqarli mutanosibligi, tajribaviy natijalar asosida zamonaviy tadqiqot usullari, jumladan, IQ-spektroskopik, rentgent fluoressent, rentgen fazaviy, skanerlovchi elektron mikroskopiya, termik analiz usullari, materiallarning gidrofilligi, dielektrikligi, sitotoksikligi va mexanik xossalarini aniqlashda zamonaviy usullarning qo‘llanilishi hamda sinovdan o‘tkazilganligi va ishlab chiqarishda qo‘llanilganligi asosida olingan natijalarning mos kelishi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati parchalanuvchan polilaktid, modifikatsiyalangan selluloza makromolekulalari tarkibiga noorganik minerallar – bentonit, kaolinning 10 % gacha miqdorda qo‘shish mumkinligi, ular orasida o‘zaro ta’sir kuchlari yuzaga kelishi orqali bioparchalanuvchan materiallarning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarining yaxshilanishi, tannarxining arzonlashishi ilmiy asoslanganligi hamda sintez jarayoni uchun kerak bo‘lgan mahsulotlar mahalliy xom-ashyolardan foydalanganligi bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xomashyolar polilaktid, oligolaktid bilan modifikatsiyalangan selluloza va mineral komponentlar asosida olingan bioparchalanuvchan materiallar atrof-muhitga tushganda biologik yo‘l bilan 2-6 oy mobaynida to‘liq parchalanishi, parchalanish mahsulotlarining zararsiz ekanligi, polilaktidning gidrolizidan hosil bo‘lgan L-sut kislotasi mikroorganizmlar uchun ozuqa bo‘lishi sababli bunday materialarning ishlab chiqarilishi yangi tarkibli, ekologik xavfsiz bioparchalanuvchan materiallar olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Polilaktid, modifikatsiyalangan selluloza hamda noorganik minerallar ishtirokida bioparchalanuvchan materiallar sintezi va xossalarini tadqiq etish bo‘yicha olingan natijalar asosida;

olingan bioparchalanuvchan materiallarning namunalari Afyon Kocatepe universiteti (Turkiya) kimyo bo‘limida “Synthesis and characterization of new nanoparticles by green synthesis using Lycium depressum extract” ilmiy loyihasi tadqiqotlari doirasida sitotoksik, antibakterial, antifungal hamda yaralarni bitirish xususiyatlarini aniqlashda qo‘llanilgan (Afyon Kocatepe universitetining 2025-yil 17-fevraldagi ma’lumotnomasi). Natijada, polilaktid, oligolaktid bilan modifikatsiyalangan selluloza va mineral komponentlar asosida antibakterial va antifungal xususiyatlarga ega PLA/OLA-g-Sell/B10; PLA/OLA-g-Sell/K10; PLA/OLA-g-Sell/B5/K5 tarkibli bioparchalanuvchan materiallar olish imkonini bergan;

sintez qilingan materiallar O‘zbekiston-Bolgariya qo‘shma korxonasi “Integra DD” MChJ QKda “Novokain inyeksiya uchun 0,5 % eritma, 5 ml” preparatining ikkilamchi qadoqlash vositasi sifatida qo‘llanilgan (“Integra DD” MChJ QK ning 2025-yil 21-yanvardagi № 8-son ma’lumotnomasi). Natijada, “GOST EN 13432:2015” xalqaro standartlar talablariga mos keluvchi materiallar sintez qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotlar natijalari 10 ta: 2 ta xalqaro va 8 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va muhokamalardan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shundan 8 ta O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestasiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 3 ta xorijiy jurnallarda, 5 ta respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibiga kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 bet[2].

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va muhimligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Bioparchalanuvchan materiallar ishlab chiqarishning zamonaviy holati**” deb nomlangan birinchi bobida, atrof-muhitga tushganda biologik yo‘l bilan parchalanuvchi materiallar olish, ularning fizik-kimyoviy xossalari, shuningdek, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, bioparchalanuvchan materiallarning xossalari hamda ularni qishloq xo‘jaligi, sanoat, biotibbiyot va boshqa sohalarda qo‘llash istiqbolllari ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Oksikislotalar asosida biodegradatsiyalanuvchan materiallar sintezi”** deb nomlanuvchi ikkinchi bobida mahalliy xomashyolar asosida mikrobiologik yo‘l bilan L-sut kislota sintez qilish, undan polilaktid olish hamda polilaktid asosida bioparchalanuvchan materiallar sintez qilish bo‘yicha tajribalar natijalari keltirilgan. L-sut kislotasi ishlab chiqarish uchun mikrobiologik yo‘ldan foydalanildi. L-sut kislota olishning mikrobiologik usuli o‘zining samaradorligi, qulayligi, arzon hamda olingan mahsulotning enantiomer tozalik darajasining yuqoriligi singari afzalliklari bilan ajralib turadi.

Uglevod manbasi sifatida kraxmal (kartoshka, bug‘doy, makkajo‘xori, sharbat ishlab chiqaruvchi korxonalar chiqindilari) dan foydalanildi. Kraxmal va azot manbai sifatida makkajo‘xori ekstrakti muhitida *Lactiplatibacillus plantarum 3G* bakteriyasi 3-5 sutka inkubatsiya qilish orqali L-sut kislotasi sintez qilindi. Olingan mahsulotning chinligini aniqlash uchun IQ-spektrlari olinib, baza ma’lumotlari bilan taqqoslandi va uning L-sut kislotasi ekanligi aniqlandi (1-rasm). 100 ml namunadan cho‘ktirilgan kalsiy laktatning miqdori 8,03 g bo‘lib, bu toza sut kislotaga hisoblanganda 6,63 g bo‘ldi. Sut kislotasining hosil bo‘lish unumi 100 ml ozuqa aralashmasiga nisbatan 6,63 gr ni yoki qo‘llanilgan ozuqa – kraxmalning 100 g namunasiga nisbatan 27,6 % ni tashkil etdi. Jarayon unumini oshirish uchun biotexnologik tadqiqotlarga ehtiyoj bo‘lib, tadqiqotning maqsadiga kirmaganligi sababli o‘rganilmadi.

[2]Kimyo fanlari nomzodi, dotsent S.U.Tillayevga dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun minnatdorlik bildiraman.



1-rasm. Mikrobiologik yo‘l bilan olingan L-sut kislotaning IQ-spektri (qizil rangda) va uning ma’lumotlar bazasi bilan taqqoslash (pushti rangda) natijasi

L-sut kislotadan polilaktid sintez qilish. Polilaktid sintez qilish uchun bir qator usullar ishlab chiqilgan. Shulardan siklik laktiddan zanjir ochilishi bilan boruvchi (ring-opening polimerization) polimerlanish reaksiyasi ancha ommalashgan usul hisoblanadi. Bunda, oxirgi – uchinchi bosqichda katalizator qo‘llaniladi.

Polilaktid sintezi. Mazkur ishda polilaktid olishning zanjirning ochilishi bilan boruvchi polimerlanish (ring-opening polymerization) usulidan foydalanildi.

Polilaktid sintezi uchun mikrobiologik yo‘l bilan olingan hamda tijoriy L-sut kislotaning 80 % li eritmasi qo‘llanildi. Polilaktid sintezi uch bosqichda amalga oshirildi. ***1-bosqich:*** 2 soat davomida 160±5 °C da laktat kislota kontsentrlandi va suv yo‘qotish orqali sut kislotaning oligomeri ko‘rinishga o‘tadi. Suvni yo‘qotish



inert gaz – azot atmosferasida, normal bosimda o‘tkazildi. Har bir bosqichda olingan mahsulotlar IQ-spektroskopik usulda nazorat qilib borildi. Olingan IQ-spektrlar ATR-LIB-PHARMA-2-472-2.S01 hamda DEMILIB.S01 biblioteka bazalari ma’lumotlari bilan taqqoslanib, moddalar identifikatsiya qilindi. IQ-spektr natijalarini taqqoslab sut kislotaning dastlab oligomer laktidga, keyin siklik laktidga, undan esa polilaktidga aylanganligi to‘g‘risida xulosa qilindi. ***2-bosqich:*** bunda 220±10 °C da 0.02 MPa vakuum sharoitida oligomer mahsulot siklik laktidga aylantirildi hamda haydash yo‘li bilan kondensatsion kolbaga yig‘ildi. Olingan siklik laktid IQ-spektroskopik usulda tadqiq etildi va qayd etilgan spektrlar ma’lumotlar bazasi bilan qiyosiy o‘rganilganda uning haqiqatan ham siklik laktidga tegishli ekanligi aniqlandi. ***3-bosqich***: oxirgi bosqichda olingan siklik laktid katalizator: ZnO/seolit (50:50) bilan aralashtirilib, (massa jihatdan 0,05-0,1 %) 140±10 °C da 4 soat davomida polilaktidga aylantirildi. Sintez qilingan polilaktid IQ-spektroskopik usulda tadqiq etilib, ma’lumotlar bazasi natijalari bilan taqqoslanganda haqiqatan ham polilaktid olinganligi qayd etildi (2-rasm). Polilaktidning hosil bo‘lish unumi bir qancha omillarga, xususan qo‘llanilgan katalizatorning turiga, jarayonning davomiyligiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib, mazkur ishda katalizator turiga bog‘liq ravishda maksimum 80-83 % unum bilan borganligi aniqlandi. Qolgan 17-20 % mahsulot sut kislotaning oligomeri ko‘rinishida bo‘lib, agregat holati yopishqoq quyuq massa (suyuqroq konsistensiyaga ega) holatda bo‘ldi. Oligomerning molekulyar massasi viskozimetrik usulda aniqlanganda 450-750 orasida ekanligi, bu esa n ning qiymati o‘rtacha 8-10 ekanligini ko‘rsatdi.

Polilaktid sintezi uchun katalizator tanlash. Sanoat miqyosida polilaktd sintez qilish uchun eng samarali katalizator – qalay oktanoati keng qo‘llaniladi.



2-rasm. Polilaktidning IQ-spektri (qizil rang) (ko‘k rangli polosa ma’lumotlar bazasi asosida Poly(lactide)ga tegishli ekanligi aniqlandi)

Oxirgi yillarda qalay birikmalarining zaharli ekanligidan, atrof-muhitga hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatiga salbiy ko‘rsatmaydigan, zaharligi kam katalizatorlar ishlab chiqish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda. Nisbatan kam o‘rganilgan katalitik tizimlar – seolitlar bo‘lib, so‘nggi yillarda kam sonli tadqiqotlar e’lon qilindi. Ishda katalizator sifatida polilaktid sintez qilishda katalizatorlar – Lyuis kislotalari (Al, Sn, Sb va boshqalar birikmalari), Zn va uning birikmalarining sintetik seolitlar bilan aralashmalaridan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Sintetik seolitlar mahalliy dala shpati asosida gidrotermal usulda sintez qilindi. Katalizator sifatida ZnO va uning seolit bilan 1:1 aralashmasidan foydalanilganda 120-140 °C 4-6 soat mobaynida 74-87 % unim bilan mahsulot olinib, uning o‘rtacha molekular massasi 57-74 kDa diapazonda ekanligi aniqlandi. Katalizator sifatida $AlCl_3$, $ZnCl_2$, $FeCl_3$ va ularning seolitlar bilan aralashmasidan foydalanilganda reaksiya unumining 34-85 % orasidan ekanligi, mahsulotning o‘rtacha molekular massasi esa 12-65 kDa ekanligi aniqlandi. Shu sababli keyingi tajribalarda ZnO/seolit 1:1 aralashmadan foydalanildi. Bunda, qalay oktanoat asosida olingan mahsulotning molekular massasi (≈200 – 300 kDa) ga qaraganda nisbatan past molekular massali polilaktid olingan bo‘lsa ham, keyingi tadqiqotlar uchun yaroqli bo‘lganligi sababli, tadqiqotlar shu tipdagi mahsulot asosida davom ettirildi.

O‘simlik chiqindilaridan selluloza olish va kimyoviy modifikatsiyalash. Keyingi tajribalarda ba’zi o‘simliklar chiqindilari (bug‘doy, javdar, sholi, qamish, g‘o‘zapoyasi va boshqalar) poyasidan selluloza ajratib olindi. Ma’lumki, polilaktid makromolekulalarining qutbliligi kam. Chunki, uning yon zanjirida faqat erkin metil ($-CH_3$) guruhlarigina bo‘lib, karboksil va gidroksil guruhlari makromolekula hosil qilishda ishtirok etganligidan, umumiy holda makromolekula qutbsizga yaqin bo‘ladi. Selluloza makromolekulalari esa aksincha, ko‘p miqdorda gidroksil (-OH) guruhlari saqlaganligi uchun kuchli qutbli tabiatga ega.



Polilaktid / selluloza asosida materiallar olish uchun ularni o‘zaro tabiatini yaqinlashtirishning yo‘llaridan biri – selluloza makromolekulalarini *modifikatsiyalashdir*. Shu sababli, mazkur ishda sellulozani kimyoviy modifikatsiyalash borasida tadqiqotlar olib borildi. Sellulozani kimyoviy modifikatsiyalash ikki modda ishtirokida: L-sut kislotasi hamda uning oligomeri bilan amalga oshirildi.

Noorganik minerallar (bentonit, kaolin va boshqalar) asosida biodegradatsiyalanuvchan materiallar olish. Noorganik minerallar (bentonit, kaolinit, kaolin, seolitlar va boshqalar) asosida biodergadasiyalanuvchan kompozit materiallar olish borasidagi tadqiqotlar oxirgi yillarda olimlarning diqqat-e’tiborini tortmoqda. Bentonit, kaolin, seolitlar singari tabiiy noorganik minerallarning afzallik tomonlaridan biri shuki, bu moddalar zaharli emas, tirik hujayralar bilan biologik muvofiqligi yuqori bo‘lib, biotibbiy mahsulotlar olishda keng qo‘llaniladi. Shu bilan birga bu moddalar qo‘shilgan degradatsiyalanuvchan materiallar parchalanishidan atrof-muhitga zararsiz bo‘lgan komponentlar ajralishi ularning qo‘llash sohalarini yanada kengaytirmoqda.

Mazkur ishda qo‘llanilgan bentonit minerali “PPD” markali bo‘lib, “Bentonite” MCHJ (O‘zbekiston) dan, kaolin mineralining “AKT-35” markali namunalari “ANGREN KAOLIN” MCHJ (O‘zbekiston) olingan. Ushbu minerallarning kimyoviy element tarkibi rentgenfluoressent analizi usulida tahlil qilindi. Analiz natijalaridan, bentonit hamda kaolin minerali asosan alyumosilikatlardan tashkil topgan bo‘lib, tarkibida nisbatan ko‘proq miqdarda Fe, Mg, K, S; kamroq miqdorda esa P, Cr, Ni, Cu, Zn uchraydi. Og‘ir va zaharli metallar uchramaydi. Kaolinning ushbu ishda foydalanilgan markasida alyuminiy oksidining ulushi 35% dan kam emas. Bentonitning tarkibida asosan montmorillonit saqlagan kulrang gillaridan foydalanildi.

Noorganik minerallar (bentonit, kaolin va boshqalar) ni kimyoviy modifikatsiyalash. Bentonit, kaolin singari minerallarni qo‘llanishidan oldin bir necha bosqichli tozalash-ishlov berish yo‘llari bilan qayta ishlandi. Shundan so‘ng organik modifikatsiyalash uchun, olingan bentonit (kaolin) ning L-sut kislotasi bilan kimyoviy modifikatsiyalandi. Modifikatsiyalash minerallarning yuzasida sodir bo‘lganligi IQ-spektroskopik usulda nazorat qilindi. Minerallarning yuza qismidagi Al-O-Al bog‘lari ishqor ta’sirida uzilib, L-sut kislotasi bilan qizdirilganda, mineral komponentlar L-sut kislota qoldig‘i bilan kimyoviy bog‘lanadi.



Hosil bo‘lgan mahsulotlar polimer matritsaga yaxshi adgeziyalanib, xossalari yaxshilangan materiallar olishga imkon berishi keyingi tajribalarda isbotlandi.

Polilaktid/modifikatsiyalangan selluloza/mineral komponentlar asosida bioparchalanuvchan materiallar olish. Polilaktid, sut kislota va uning oligomeri bilan modifikatsiyalangan selluloza hamda mineral komponentlar (bentonit, kaolin) asosida bioparchalanuvchan kompozit materiallar sintez qilishda ikki xil usuldan foydalanildi: 1) “qaynoq presslash” usuli 2) erituvchi ishtirokida quyish (formirlash, shakl berish) (solvent casting method) usuli.

Biodegradatsiyalanuvchan materiallar maqbul tarkibini tanlash. Polilaktidga sut kislota yoki uning oligomeri bilan modifikatsiyalangan sellulozaning har ikkalasida ham komponentlar nisbati 60/40 dan 90/10 ga qarab, polilaktid miqdori ortib borishi bilan komponentlarning o‘zaro adgeziyasi, materialning gomogenligi oshib borishi kuzatildi. Kompozit tarkibida massa jihatdan 70 % polilaktid bo‘lgan namunalar gomogenligi yetarli bo‘lishi, 75 % va undan ko‘p bo‘lishi ideal darajada kompozit materiallar olishga imkon berishi aniqlandi. Biodegradatsiyalanuvchan materiallar komponentlaridan polilaktidning tannarxi boshqalariga nisbatan qimmatroq ekanligi sababli, uning miqdorini imkon qadar kam bo‘lishi mahsulot tannarxini pasaytiradi. Shu sababli, tarkibida 70-80 % atrofida polilaktid saqlagan namunalar eng maqbul tarkib sifatida qabul qilindi. Sellulozani sut kislota bilan ham uning oligomeri bilan modifikatsiyalash natijasida olingan mahsulotlarning barchasida polilaktid matritsaga yaxshi adgeziyalanganligi kuzatildi. Namunalarga mineral komponentlar: kaolin hamda bentonit qo‘shish orqali kompozit materiallar olishda namuna tarkibidagi polilaktid/selluloza nisbatini (80:20) o‘zgartirilmasdan saqlangan holda, mahsulotning massasiga nisbatan 20 % gacha noorganik mineral komponentlar qo‘shish orqali kompozitlar hosil qilindi. Namunalar tarkibiga 15 % dan ortiq mineral komponentlar qo‘shilishi materiallarning fizik-kimyoviy hamda mexanik xossalariga salbiy ta’sir qilishi aniqlandi. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda tarkibiga 15 % gacha mineral komponentlar qo‘shilgan materiallar namunalari o‘rganildi.



3-rasm. Sintez qilingan namunalarning qiyosiy IQ-spektrlari



4-rasm. Namunalarning termik xossalarini qiyosiy baholash

Dissertatsiyaning **“Bioparchalanuvchan materiallarning fizik-kimyoviy, mexanik hamda biologik xossalarini tadqiq etish”** deb nomlanuvchi uchinchi bobda sintez qilingan bioparchalanuvchan materiallarning fizik-kimyoviy, tekstur, mexanik hamda biologik xossalarini tadqiq etish borasidagi tajribalar natijalari keltirilgan. Sintez qilingan materiallar FTIR, TGA, DSC, XRD, SEM, gidrofillik darajasini aniqlashda kontakt burchaklarini optik usulda aniqlash; sitotoksiklik, antibakterial, antifungal, sanitar-gigiyenik xossalarini zamonaviy usullardan foydalangan holda tadqiq etildi.

Bioparchalanuvchan materiallarni IQ-spektroskopiya usulida tadqiq etish natijalaridan, toza PLA / selluloza tarkibli materiallarda ~1750 cm^{-1} sohada chiqqan, karbonil (CO) guruhiga mos polosaning, 5 % dan mineral komponentlar qo‘shilishi natijasida 1734 cm^{-1}, 1718 cm^{-1} sohaga siljiganligi, mineral komponent hamda polimer makromolekulalari orasida koordinatsion ta’sirlar yuzaga kelganligini ko‘rsatadi (3-rasm). ~1080 cm^{-1} sohadagi -C-O- tebranishlariga mos polosalarning 1014 cm^{-1}, 960 cm^{-1} sohaga siljiganligi, shuningdek, xuddi shu polosalarning 981 cm^{-1} sohaga siljiganligi ham polimer makromolekulalari hamda mineral komponentlar orasida kuchli o‘zaro ta’sirlar yuzaga kelganligini ko‘rsatadi.

Materiallarning termik xossalarini tadqiq etishda olingan natijalarga ko‘ra, toza PLA/mod-selluloza asosidagi materiallarning asosiy parchalanishi 350-410 ^{o}C orasida bo‘lib, bentonit mineralining miqdori ortib borishi bilan asosiy parchalanish temperaturasining boshlanish nuqtasi mos ravishda 340-330-320 ^{o}C ga qadar kamayib borganligi; kaolin qo‘shilgan namunalarda esa 330-320-315 ^{o}C gacha pasayib borganligi aniqlandi (4-rasm, 2-4 egriliklar). Namunalar tarkibiga 2,5 % (jami 5 %) dan hamda 5 % dan (jami 10 %) bentonit hamda kaolin minerallari birgalikda kiritilishi ularning asosiy parchalanishning boshlanish temperaturasini 280 ^{o}C ga qadar pasaytirishi kuzatildi (4-rasm, 8-10 egrilik). Kaolin qo‘shilgan namunalarning kul qoldig‘i barcha namunalar ichida kam bo‘lganligi kuzatildi. Bu havo kislorodi ishtirokida material namunasining oksidlanish jarayonida kaolinning katalitik rol o‘ynaganligi bilan izohlanadi.



5-rasm. Materiallaring shishalanish temperaturasi (Tg) ni aniqlash natijalari



6-rasm. Namunalarning rentgenfazaviy analizi

Differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSC) usulida namunalarni analiz qilish natijalaridan, toza polilaktid va modifikatsiyalangan selluloza asosida olingan materiallar namunasining T_g qiymati ~170 ºC bo‘lib, namunalarga bentonit minerali qo‘shilishida uning qiymatlari o‘zgarishini ko‘rish mumkin. Eng yuqori qiymat (175 ºC) namunalarga 10 % bentonit kiritilganda kuzatildi (4-rasm, 3-egrilik). Bu namunalar tarkibiga kiritilgan mineralning nanozarrachalari polimer zanjirning harakatchanligini kamaytirishi va erkin fazoning kamayishi hisobiga ro‘y beradi.

T_g dan past bo‘lgan temperaturalarda polimerning zanjiri erkin harakatlana olmaydi va materiallar shishasimon bo‘lib, mo‘rt xossalarga ega bo‘ladi. Bu holatda bentonitning nanozarrachalari erkin fazoni kamaytirishi hisobiga polimer zanjirining harakatlanishi uchun ko‘proq energiya talab etadi.

Namunalar tarkibiga kaolinning kiritilishi (5-rasm, 5-7 egriliklar) shishalanish temperaturasi (T_g) ni toza polilaktid/selluloza namunalariga nisbatan pasayishiga va hatto tarkibiga 10 % kaolin kiritilgan namunalarda (6-egrilik) sintez qilingan barcha namunalarga nisbatan eng kam qiymat – 150 ºC kuzatildi. Bentonit va kaolin minerallarini birgalikda 5 % miqdordan kiritilishida shishalanish temperaturasi eng kichik (150 ºC), binobarin erkin fazoning ulushi eng katta bo‘lgan materiallar olishga imkon berishi aniqlandi (5-rasm, 8-egrilik).

Namunalarning rentgenfazaviy analizi natijalaridan, 2θ=15-20º sohada polilaktidga tegishli signallarning intenlivligi namunaga qo‘shilayotgan mineral miqdorining ortishi bilan kamayib borganligi aniqlandi (6-rasm). 2θ = 20-35º sohada signallarning soni va intensivligining oshib borishi qo‘shilgan bentonit miqdoriga proporsional bo‘lib, uning kristalligi hisobiga yuzaga kelganligi bilan izohlash mumkin. PLA/mod-Cell 80:20 tarkibli namunalarga uning massasiga nisbatan 15 % gacha kaolin minerali qo‘shilishidan olingan namunalarning XRD analizi natijalardan, 2θ=15-20º sohada polilaktidga tegishli signallarning intenlivligi bentonit qo‘shilgan mos namunalarga nisbatan yuqori bo‘lib, namunaga qo‘shilayotgan mineral miqdorining ortishi bilan bu yerda ham signallarning umumiy kamayib borganligi kuzatildi. 2θ=20-35º sohada signallarning soni va intensivligining qo‘shilgan kaolin miqdoriga bog‘liqligi kuzatilmadi. Barcha namunalarda signallarning umumiy soni bentonit qo‘shilgan namunalarga nisbatan yuqoriligi kuzatildi.

PLA / mod-Selluloza / Bentonit + Kaolin birgalikda qo‘shilgan namunalar analiz qilinganda, bentonit/kaolin minerallari aralashmasi kiritilishi umumiy kristallik darajasining bentonit qo‘shilgan namularga nisbatan yuqori, kaolin qo‘shilgan namunalarga nisbatan esa kamayishiga olib kelganligi aniqlandi.



7-rasm. PLA/mod-selluloza tarkibli materialning SEM tasviri



8-rasm. PLA/Sell + B15 materilining SEM tasviri

Bioparchalanuvchan materiallarning SEM analizi dastlab, polilaktid hamda modifikatsiyalangan sellyuloza (PLA/OLA-g-Cell 80:20 tarkibli namuna) asosidagi kompozit materiallar tadqiq etildi. SEM analizi natijalaridan, ko‘rishimiz mumkinki, PLA/OLA-g-Cell 80:20 bo‘lgan namunalarda matritsa – polilaktid hamda modifikatsiyalangan sellyuloza orasida juda yaxshi adgeziya sodir bo‘lgan (7-rasm).

Selluloza makromolekulalari alohida bo‘lgan joylarda diametri 20 µm gacha bo‘lgan g‘ovak sohalarning hosil bo‘lishi kuzatildi. Polilaktidning mayda kristallitlari o‘lchami 2-5 µm gacha bo‘lgan sohalar ko‘zga tashlanadi. Namunalarga 10 % gacha bentonit minerali qo‘shilgan materiallarda komponentlar o‘zaro juda yaxshi adgeziyaga ega bo‘lib, o‘lchamlari 2-7 µm bo‘lgan g‘ovak kanalchalar yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. Namunalar tarkibiga 15 % va undan ortiq qo‘shilgan bentonit materiallarning fizik-kimyoviy hamda mexanik xossalariga salbiy ta’sir qilishi, materialning strukturasida mikro- darajadagi yoriqlarning paydo bo‘lganligini ko‘rish mumkin (8-rasm).

